

Jahongir RIZO

"Ikki qalb"

Visit "[Ikki qalb](#)" on MotoLyrics.com

Oq bulutlar aro ikki kabutar
Sevgi qanotida yonma yon uchar.
Yuraklarda cheksiz orzular bilan.
Samoda ikkovin bulutlar quchar.

Oq bulut, oq gullar.. Oq kabutarlar
Sevgi og'ushida birga edilar.
Oq bulut, oq gullar.. Oq kabutarlar
Zulmatda bir birin yig'lab izlarlar

Nogoh osmonimiz bo'ldi qop-qora,
Bir zulmat qurshadi bizni tobora,
Qora bulut aro izlab bir birin,
Lochinga ov bo'ldi qushlar bechora.

Oq bulut, oq gullar.. Oq kabutarlar
Zulmatda bir birin izlab yig'larlar.
Oq bulut, oq gullar... Oq kabutarlar
O'shal baxtli kunni eslab yig'larlar.

..Biz ham ular kabi yonma yon edik,
Oq gullarni terib, birga yurardik,
Orzular ketidan ergashgancha, jim,
Oppoq bulutlarga biz maftun edik.

Shunda men ham seni yo'qotdim mangu,
Seni olib ketdi qora bir qayg'u,
Endi sen ham mendek yolg'izsan, gulim,
Ketdik, bu chamanlar bizga qorong'u...

Oq bulut, oq gullar.. Oq kabutarlar
Sevgi og'ushida birga edilar.
Oq bulut, oq gullar.. Oq kabutarlar
Zulmatda bir birin izlab yig'larlar.

